


**Jizzax viloyat Politexnika instituti**  
**“E va AMM” kafedrası**  
**ass. Kamolova Sh**

**Qarindosh-urug'lar**  
**o'rtasidagi nikohlarning**  
**salbiy oqibatları va tug'ma**  
**nogironlik**



**«Sog'lom farzand –  
sog'lom oiladagina  
tug'iladi».**

**I.A.Karimov**

- **Respublikamiz aholisi salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan irsiy omillar - sharqona milliy anʼanalarimizdan biri boʻlgan qon- qarindoshlar oʻrtasidagi nikohlar, alohida milliy guruh, oilalar, saidlar, eshonlar oʻrtasidagi diniy anʼanalariga koʻra qattiq chegaralangan nikohlar millatning irsiyatini charchatib qoʻygan.**

- Yurtimizdagi nikohlarning 20 foizidan ko'prog'i yaqin qon- qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga tog'ri keladi.



- Olimlarning fikricha, qon- qarindoshlardan tashkil topgan 100 ta oiladan 60 tasida tug'ma irsiy kasallikka chalingan farzand tug'ilar ekan.
- Nosog'lom farzand tug'ilish havfi qon- qarindoshlar qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik yuqori bo'ladi.
- Dono xalqimiz qarindoshlik yetti avlodga borib begonalashadi deydi:

- ota-ona
- bola
- nabira
- chevvara
- evvara
- qabira
- begona

- **Hozirgi vaqtda 6 mingdan ortiq tug'ma irsiy kasalliklar mavjudligi qayd etilgan. Shulardan 1,5 mingtasi davolab bo'lmaydigan yoki umrbod davolash kerak bo'lgan kasalliklardir.**
- **Irsiyat deganda - ota-onalarning o'ziga xos belgilarni navbatdagi avlodlarga berish xususiyati tushuniladi.**
- **Irsiyat tirik mavjudotlar orasida o'zaro uzviylikni ta'minlash orqali avlodlar almashinuvi, yerdagi hayotning uzluksiz davom etishini ta'minlash bilan bog'liq muhim biologik hususiyatdir.**

- **XX asrda ilmu-fan erishgan yutuqlar natijasida irsiy belgilarni nasldan-naslga uzatuvchi tuzilma, hujayralar yadrosida joylashgan alohida oqsil tuzilma - xromosomlar ekanligi aniqlandi.**
- **Hromosomlar har bir organizmning faqat o'zigagina hos bo'lgan alohida belgilarni uzatish imkoniyatiga ega bo'lib, bu xususiyat xromosomlarning bir qismi - DNK molekulasi yoki genlar tomonidan amalga oshiriladi.**
- **Inson salomatligi ko'p jihatdan uning genotipi bilan belgilandi. Genotip deganda inson organizmdagi bir-biri bilan o'zaro murakkab munosabatda bo'lgan genlarning yig'indisiga aytiladi.**

**Inson genotipida hozircha 1 million atrofida genlar borligi aniqlangan bo'lib, ular hujayralardagi mavjud 23 juft xromosomlardagi DNKlarda joylashgan**



- **Irsiy kasalliklar irsiy axborotlarni nasldan-naslga tashuvchi genlarning o'zgarishlari natijasida yuzaga keladi.**
- **Qarindoshlar o'ratsidagi nikohlarda ota-onalar ko'rinishdan sog'lom bo'lib ko'rinishi mumkin, biroq ularning farzandlari tug'ma irsiy kasallik bilan tug'ilishi xavfi yuqori bo'ladi.**
- **Masalan, otasida irsiy kasallikni tashuvchi gen bor deb faraz qilaylik. Onasi qarindosh bo'lganligi tufayli unda ham aynan shu kasallikni tashuvchi gen bo'lishi mumkin. Biroq bu irsiy kasallik ularning ikkalasida ham yuzaga chiqmagan bo'lishi mumkin.**

## Qaysi paytda irsiy kasallik yuzaga chiqishi mumkin?

- **Ota-onalardagi yashirin «kasallik» genlari uchrashganda farzandalrda irsiy kasallik namoyon bo'ladi. Odatda bola o'z genlarining yarmini onadan, ikkinchi yarmini otadan oladi.**
- **Insonda bitta «kasallik» geni mavjud bo'lsa, u sog'lom gen bilan birikadi va kasallik yuzaga chiqmaydi. Bunday kishilar «kasallik» genining tashuvchilari hisoblanadi. Kasallik genlari tashuvchilarining urug'lari 50 foizga «kasallik» genlarini o'zida saqlaydi.**

## **«Kasallik» genlari ota-onadan farzandga 3 turdagi ko'rinishda o'tishi mumkin:**

- **Birinchi holatda bir-biriga qarindosh va «kasallik» genining tashuvchisi bo'lgan ota-onaning urug'idagi sog'lom genlar birikib homila rivojlanganda, sog'lom bola dunyoga keladi.**
- **Ikkinchi holatda homila ota-onalardan birining «sog'lom» genini o'zida saqlovchi urug'dan ikkinchisining «kasallik» genini o'zida saqlovchi urug'dan rivojlansa, bola sog'lom tug'iladi, lekin u «kasallik» geni tashuvchisi bo'lib qoladi.**
- **Uchinchi holatda homila ota-onaning «kasallik» genini saqlovchi urug'idan rivojlansa, farzand irsiy kasallik bilan dunyoga keladi.**

**Qarindoshlik qancha yaqin bo'lsa, tug'ma irsiy kasallik paydo bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.**

**Shuning uchun qarindoshlar o'rtasida umumiy genlarning ulushini bilish muhim ahamiyatga ega.**

<b>Qarindoshlik darajasi</b>	<b>Qarindoshlik munosabatlari</b>	<b>Umumiy genlar ulushi</b>
<b>I</b>	<b>Ota-ona - farzandlar aka-uka, opa-singil</b>	<b>1/2(50%)</b>
<b>II</b>	<b>Buvi, buva – nabiralar tog'a, amaki, xola, amma - jiyanlar</b>	<b>1/4(25%)</b>
<b>III</b>	<b>Xolavachcha, tog'avachcha, amakivachcha, amnavachcha</b>	<b>1/8 (12,5%)</b>

- **Sha'riat qonunlariga ko'ra qon- qarindoshlar o'rtasidagi nikoh ta'qiqlanganligiga qaramasdan, ko'pchilik aholi o'rtasida bu holat davom etib kelmoqda.**
- **Chaqaloqlarning 5 foizi irsiy kasallik bilan tug'ilyotganligi, 1 foiz holatda bolalarning o'lik tug'ilyotganligi, ayollar va erkaklarning bepushtligi, 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning bir qismi irsiy omillar bilan bog'liq.**
- **Samarqand, Jizzah, Qashqadaryo viloyatlarining qishloq aholisi o'rtasida o'tkazilgan tekshirishlar asab tizimi, ruhiy kasalliklar, qon kasalliklari, Daun kasalligi, fenilketonuriya, tug'ma gipotireoz kabi irsiy omillar bilan bog'liq kasalliklar keng tarqalganligidan dalolat bermoqda.**

- **Tug'ma nuqson bilan bolaning dunyoga kelishi ota-ona uchun katta fojidadir.**
- **Irsiy kasalliklarni davolash g'oyat murakkab bo'lgani bois, ular oila uchun ham, jamiyat uchun ham «og'ir yuk» hisoblanadi. Aksariyat hollarda bunday bemorlarga yordam ko'rsatishda tibbiyot ojizlik qiladi.**



- Oilalarda irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalar tug'ilishi ehtimolini baxolash, irsiy kasalliklarning homiladorlik davrida tashxislash, aholining irsiy savodhonligini va irsiy madaniylikini oshirish, qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida respublikamiz markazida va viloyatlar markazlarida (Samarqand, Andijon, Namangan, Nukus, Buxoro, Termiz, Farg'ona, Qarshi, Navoiy, Urgench shaharlarida) skrining markazlari (tibbiy-genetik maslahatxonalar) tashkil qilingan va faoliyat ko'rsatmoqda.

- Bu markazlar yuqori malakali, tug'ma irsiy kasalliklarni erta aniqlash masalalari bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar bilan hamda ularning ishlashi uchun zarur jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlangan.
- «Skrining» so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda ommaviy saralash ma'nosini bildiradi.



- **Ona va bola skriningi yangi tug'ilgan chaqaloqlar va homilador ayollarda yashirin kechuvchi kasalliklarni erta aniqlash va ularga o'z vaqtida kerakli chora-tadbirlarni qo'llash bilan shug'ullanadi. Skrining markazlarida aholi ommaviy tekshiruvdan o'tkaziladi.**
- **Skrining markazlarining asosiy vazifasi irsiy kasallik bilan tug'ilgan bolalarga maxsus tibbiy-genetik xizmat ko'rsatish va nuqsoni bor homila tug'ilishining oldini olish maqsadida homilador ayollarni maxsus tekshiruvdan o'tkazishdan iborat.**

## **Skrining markazlari o'z faoliyatini uch yo'nalishda olib boradi:**

- **Irsiy va tug'ma kasallik bilan tug'ilganlarga hamda shunday farzandlari bor oilalarga tibbiy-genetik maslahat berish;**
- **Tug'ruqqacha bo'lgan davrda nuqsonli homilaning rivojlanishi oldini olish;**
- **Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni tug'ma gipotireoz va fenilketonuriya kasalliklariga ommaviy tekshirish;**
- **Mukovistsidoz kasalligiga gumon qilinganlarni selektiv tekshiruvdan o'tkazish.**

- **Skrining markazlarining tibbiy-genetik maslahat bo'limlarida irsiy va tug'ma kasalliklarga chalingan farzandlari bor oilalarga turli soxa mutaxassisleri, xususan genetik, nevropatolog, endokrinolog, ginekologlar kerakli maslahatlarni beradilar.**
- **Tug'ruqqa qadar (prenatal) tekshiruv homilaning to'g'ri rivojlanishini hamda uning sog'lig'ini aniqlashga imkon beradi.**
- **Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni tug'ma gipotireoz va fenilketonuriya kasalliklariga ommaviy tekshirish genetik tahlilixonalar yordamida amalga oshiriladi.**

**Tug'ma gipotireozga qarindoshlar o'rtasidagi nikoh tufayli ota-onalar kasallik geni tashuvchilari bo'lganligi hamda ona organizmida yod moddasining yetishmovchiligi natijasida qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi sabab bo'ladi. Gipotireoz kasalligi bolaning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanmay orqada qolishi bilan ifodalanadi. Kasallik erta aniqlanib, kerakli davo choralari o'z vaqtida ko'rilsa, bola jismonan va aqlan tetik bo'lib rivojlanadi, aks holda bolani tiklab bo'lmaydigan jismoniy va aqliy zaiflikka olib keladi.**

**Fenilketonuriya – tug'ma irsiy kasallik bo'lib, nasldan-naslga yashirin holda o'tadi, bu degani ko'rinishdan sog'lom ota-onadan kasal farzand tug'iladi. Ota-onalar fenilketonuriya kasalligi genining tashuvchilari bo'lishsa, bu kasallik ularning farzandlariga o'tadi. Oilada kasal farzandning borligi keyingi farzandning ham shu kasalikka chalinish ehtimolini oshiradi. Fenilketonuriya kasalligiga chalingan bolalar aqlan zaif bo'ladi, bo'yi o'smaydi, yuragida va skeletida nuqsonlar bo'ladi.**

**Daun sindromi – tug'ma irsiy kasallik bo'lib, nasldan-naslga yashirin holda o'tadi, bu degani ko'rinishdan sog'lom ota-onadan kasal farzand tug'iladi. Ota-onalar Daun kasalligi genining tashuvchilari bo'lishsa, bu kasallik ularning farzandlariga xromosomlarning 21 jufti orqali o'tadi. Daun kasalligiga chalingan bolalar aqlan zaif, ko'zlari qisq bo'ladi, og'zidam tili osilib turadi, bo'yi kichik, yuragida nuqsonlar bo'ladi.**



**Oilada farzandning dunyoga kelishini ota-ona intizorli k bilan kutadi, xonadonda chaqaloq ovozing yangrashi ota-onani cheksiz baxtiyor qiladi. Biroq, orziqib kutilgan farzandning tug'ma irsiy nuqsonlar bilan dunyoga kelishi oila uchun daxshatli fojiaga aylanishini tasavvur qilish qiyin bo'lmasa kerak!**

**Farzandlaringiz  
kelajagini o'ylab  
ularning sog'u-salomat,  
Barkamol bo'lib voyaga  
yetishini istasangiz  
qarindosh-urug'lar  
o'rtasidagi nikohlardan  
voz keching!**

*E'tiboringiz  
uchun  
rahmat!*